

MARKETING

ILMIY, AMALIY VA OMMABOP JURNAL



№12 – SON

9710 xalqaro daraja



№240874



ISSN: 3060-4621

2025-YIL, DEKABR



OPEN  ACCESS



JURNALNING MAQSADI

Tadbirkorlik-biznes faoliyatini tashkil etishning marketing asoslarini, yo'nalishlari, echimlari, vositalarini yaratish va rivojlantirish

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

TEL: (97) 783-84-64

VEB-SAYT

www.marketingjournal.uz

ELEKTRON POCHTA:

info@marketingjournal.uz

TELEGRAM BOT:

[@marketingjournalbot](https://t.me/tidiumarketingjournal)

TELEGRAM KANAL:

<https://t.me/tidiumarketingjournal>

MUASSIS

"Tadbirkor va ishbilarmon" MCHJ

JURNALNING ILMIYLIGI

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining **2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

INDEKSATSIYA



BOSH MUHARRIR

Xakimov Ziyodulla Axmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Yusupov Muxamadamin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor;

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor;

Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna, i.f.d., prof., TDIU, "Marketing" kafedrasini mudiri;

Soliyev Axmadjon Soliyevich, i.f.d., NamDTU, "Marketing" kafedrasini professori;

Ikramov Murad Akramovich, i.f.d., TDIU "Marketing" kafedrasini professori;

Tursunov Boburjon Ortqimrziyevich, i.f.d., prof., TDIU, Iqtisodiy xavfsizlik kafedrasini mudiri, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi;

Zarova Elena Viktorovna, i.f.d., G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti professori, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi

Akramov Tohir Abdurahmonovich, i.f.d., TDIU, "Marketing" kafedrasini professori;

Ostonaqulova Gulsaraxon Muhammadyoqub qizi, i.f.d., TDIU, "Marketing" kafedrasini professori;

Samadov Asqarjon Mishomovich, i.f.n., TDIU, "Marketing" kafedrasini professori;

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi, i.f.n., dots., TDIU Kengash kotibi;

Sobirov Azizbek Avazbekovich, PhD., TDIU, "Marketing" kafedrasini dotsenti;

Sadikov Shoxrux Shuxratovich, PhD, dots., TIU, Departament boshlig'i;

Musheva Shoirazimovna, i.f.n., SamSI, "Marketing" kafedrasini professori;

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li, PhD., TDIU, "Marketing" kafedrasini dotsenti;

Djurabayev Otabek Djurabayevich, i.f.d., TDIU, "Innovatsion menejment" kafedrasini dotsenti;

Karimova Shirin Zoxid qizi, PhD, TDIU, "Axborot texnologiyalari" kafedrasini katta o'qituvchisi;

Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbaevich, DSc., NamDTU, "Menejment" kafedrasini mudiri, dotsenti;

Fayzullayev Jaylonbek Sultonovich, DSc., TDIU, "Yashil iqtisodiyot" kafedrasini dotsenti;

Aliyev Yashnarjon Egamberdiyevich, DSc., TDIU, "Iqtisodiy va moliyaviy xavfsizlik" kafedrasini professori;

Bobojonov Azizjon Babaxanovich, DSc, TDIU, "Raqamli iqtisodiyot" kafedrasini dotsenti

Allayarov Shamsiddin Amanullayevich, DSc, prof., TDIU, "Savdo ishi" kafedrasini mudiri

Jumayev Olimjon Sadulloevich, DSc, Raqobat siyosati va iste'molchilar huquqlari tadqiqotlari markazi direktori;

Maxamadjanov Akbar Maxamadaliyevich, PhD., TDIU, Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari fakulteti dekan muovini

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., Alfraganus universiteti O'quv ishlari bo'yicha prorektor;

Abdavaxidov Abdumalik Maxkamovich, i.f.d., TDIU, "Turizm va servis" kafedrasini professori;

Kucharov Abrorjon Sobirjanovich, TDIU, "Biznes boshqaruvi va logistika" kafedrasini professori

Tuychiyev Alisher Jurayevich, Alfraganus University "Iqtisodiyot" fakulteti dekani, professor;

Nazarova Ra'no Rustamovna, TDIU, "Yashil" iqtisodiyot kafedrasini mudiri, Iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Usmonov Bunyod Aktam o'g'li, PhD, TDIU, Moliyaviy tahlil kafedrasini v.b.dotsenti;

Dehqonov Burxon Rustamovich, PhD., TDIU, Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi bosh mutaxassisi;

Turobova Hulkar Rustamovna, PhD., BuxDU, Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrasini dotsenti;

Bo'laev Umidjon Talant o'g'li, i.f.f.d., PhD., Toshkent arxitektura qurilish instituti "Iqtisodiyot va bo'chmas mulkni boshqarish" kafedrasini dotsenti;

Bayxonov Bahodirjon Tursunbayevich, i.f.d., DSc, NamDTU, "Menejment" kafedrasini dotsenti;

Maxmudov Toxirjon Olimjonovich, PhD., NamDTU, "Marketing" kafedrasini dotsenti;

Pardayev Sherzod Xolmurodovich, i.f.f.d., PhD., TDIU, "Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes" kafedrasini dotsenti;

Beknazarov Behzod Baxtiyor o'g'li, PhD., Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali "Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes" kafedrasini dotsent v.b.

Rajabova Moxichexra Abduxolikovna, PhD., Buxoro davlat universiteti marketing va menejment kafedrasini o'qituvchisi.

Ikromov Axmadjon Shavkat o'g'li, PhD., Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining Ekonometrika va iqtisodiy modellashirish kafedrasini katta o'qituvchisi

Elektron nashr 655 sahifa. E'lon qilishga 2025-yil 25-dekabrda ruxsat etildi

MUNDARIJA

BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISHDA “YASHIRIN” HAMDA “XUFYONA” IQTISODIYOTNI KAMAYTIRISH ZARURATINING EMPERIK TAHLILI	7
Nazarova Ra’no Rustamovna, Najmiddinov Yahyo Fazliddin o’g’li	
O’ZBEKISTONDA TIKUV KIYIMLARI BOZORINI RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI	23
Soliyev Axmadjon, Maxkamov Iqboljon	
IQTISODIY FAOLLIKNI BAHOLASHDA ILG’OR YONDASHUVLAR HAMDA O’ZBEKISTONDA BIZNES FAOLLIGI INDEKSINI JORIY ETISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI	32
Jumayev Olimjon Sadulloyevich, To’ymatov Muzaffarjon Yoqubjon o’g’li	
FIRIBGARLIK HOLATLARINI AUDITORLIK TEKSHIRUVLARI ORQALI ANIQLASHNING NAZARIY ASOSLARI	40
Boltayev Abror Sayitmuradovich	
SANOAT TARMOG’INI RIVOJLANISHINING O’ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	47
Muxtarov Maxmudjon Marifovich	
PAXTA-TO’QIMACHILIK KLASSTERLARI FAOLIYATINI OPTIMALLASHTIRISHGA ZAMONAVIY USLUBIY YONDASHUVLAR	56
Yusupova Feruza Yo’ldosheva	
IQTISODIY ISLOHATLARNING MILLIY MODEL VA YANGI O’ZBEKISTON STRATEGIYASI ...	62
Srajdinova Nodira Shavkatovna	
TEMIRYO’L TRANSPORT KORXONALARINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING O’RNI	69
Eshboyev Ulug’bek Farxodovich	
PAXTA-TO’QIMACHILIK KLASSTERLARI FAOLIYATINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH YO’LLARI	76
Yusupova Feruza Yo’ldosheva	
O’ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA VAKOLATLI IQTISODIY OPERATORLAR FAOLIYATINI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH	81
Ismatullayeva Shoiri Nurlibekovna	
SANOAT KORXONALARI DEMOGRAFIYASINING IQTISODIY SAMARADORLIKGA TA’SIRINING EKONOMETRIK MODELLARI	92
Xayitboev Abror Quvondiqovich	
O’ZBEKISTONDA LIZING XIZMATLARI KO’RSATISH JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH	100
Xolov Bahodir O’ktamovich	
O’ZBEKISTON IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA TRANSPORT INFRATUZILMASI IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH HOLATI TAHLILI	107
Qo’ziboyev Umarbek Ulug’bekovich	
OLIY TA’LIM RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI MARKETINGNING O’RNI	114
Nishonov Dilshod Shamsidinovich	
ПРОМЫШЛЕННЫЙ ТУРИЗМ В УЗБЕКИСТАНЕ: КОМПЛЕКСНЫЙ АНАЛИЗ ГОТОВНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ УЗБЕКИСТАНА К ПРИЁМУ ПОСЕТИТЕЛЕЙ	121
Голышева Елена Вячеславовна, Адылова Диёра Улугбековна	
MINTAQANING QURILISH TIZIMIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH NAZARIYALARI	134
Aminov Sardorbek Sanjarbekovich	
MILLIY IQTISODIYOT RAQOBATBARDOSHLIGINI BAHOLASHDA MAHSULOT BOZORI REGULYATORI TIZIMINI QO’LLASHNING AXAMIYATI	139
Rustamov Narzillo Istamovich	
МАРКЕТИНГОВЫЕ ДЕТЕРМИНАНТЫ ФОРМИРОВАНИЯ ДОВЕРИЯ К ТОВАРАМ НА РАЗВИВАЮЩИХСЯ РЫНКАХ	147
Абдурашидова Нигора Алишеровна, Кахрамонова Шахзода Дилмурод кизи, Болтаева Севинч Учкун кизи	
XIZMAT KO’RSATISH SOHASIDA STRATEGIK MENEJMENTNING ROLI VA AHAMIYATI	158
Alimova Dildora Damirovna, Aslonov Abdulla Xolmurodovich	

ICHKI AGRAR BOZOR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH ORQALI OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI MUSTAHKAMLASH YO‘LLARI	169
Aliev Yashnarjon Egamberdievich	
INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNINGNI JORIY ETISH ORQALI TO‘QIMACHILIK SANOATINING RAQOBATBARDOSHLIGI VA IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH	174
Xakimova Zebinisa Muzaffarovna	
MINTAQADA MAXSUS IQTISODIY ZONALAR RIVOJLANISHINING NAZARIY ASOSLARI	182
Abdullayeva Zulfiya Sadullayevna	
ВЛИЯНИЕ НЕЙРОМАРКЕТИНГА И ИНСТРУМЕНТОВ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА НА ЭФФЕКТИВНОСТЬ ЦИФРОВОЙ РЕКЛАМЫ.....	187
Кахрамонов Хуршиджон Шухрат угли, Халикова Доно Джахангировна, Шавкатова Шахзода Шухратовна	
OILAVIY TADBIRKORLIKNING KAMBAG‘ALLIK DARAJASINI QISQARTIRISHGA TA’SIRINI BAHOLASH.....	202
Zaxidova Umida Farxodovna	
ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ РЕСТОРАННОГО БИЗНЕСА ЧЕРЕЗ ВНЕДРЕНИЕ И ПРОДВИЖЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ УСЛУГ	216
В.И. Назаров	
QURILISH TARMOG‘IDA OLIB BORILAYOTGAN ISLOHOTLAR VA SOXANI RIVOJLANISH TENDENSIYALARIGA TA’SIRI	225
Arifdjanova Zilola Dilshodovna	
MINTAQADA TASHQI MEHNAT MIGRATSIYASI OQIMLARINI TA’MINLASH YO‘LLARI.....	234
Zakirov Mir Timur Zakir o‘g‘li	
ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В УКРАИНЕ И УЗБЕКИСТАНЕ: ВЫЗОВЫ СОВРЕМЕННОСТИ.....	242
Вдовиченко Лариса Юрьевна, Азизова Сайёра Хамидуллаевна	
ВЛИЯНИЕ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ НА УСТОЙЧИВОСТЬ И ИННОВАЦИОННОСТЬ ТРАНСПОРТНЫХ КОМПАНИЙ УЗБЕКИСТАНА	253
Кадирова Шарофат Амоновна	
РОЛЬ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО МАРКЕТИНГА В УСИЛЕНИИ ПОТРЕБИТЕЛЬСКОЙ ЛОЯЛЬНОСТИ.....	272
Кахрамонов Хуршиджон Шухрат угли, Ж.Ж. Буриева, З.А. Юсупбекова	
ВЛИЯНИЕ АВТОМОБИЛЬНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ УЗБЕКИСТАНА НА ЭКОНОМИКУ СТРАНЫ	282
Абдухамидова Мафтуна Турсунали кизи	
TEMIR YO‘L TRANSPORTI KORXONALARIDA ISHLAB CHIQRISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHDA KPI TIZIMINI QO‘LLASH.....	290
Mahmudova Dilafruz Hasanovna	
FACTORS AND METHODOLOGICAL APPROACHES INFLUENCING THE INNOVATION MANAGEMENT MECHANISM IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM.....	299
Karimov Muzaffar Abdumalik ugli	
CRM-УПРАВЛЕНИЕ В СЕТЕВЫХ СУПЕРМАРКЕТАХ РАЗВИВАЮЩИХСЯ СТРАН: РОЛЬ КЛИЕНТСКИХ ДАННЫХ, ПРОГРАММ ЛОЯЛЬНОСТИ И ОМНИКАНАЛЬНЫХ СТРАТЕГИЙ В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ РОЗНИЧНОЙ ТОРГОВЛИ	305
Юсупов Улугбек Шукруллаевич	
TIJORAT BANKLARIDA RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISHDA CRM TIZIMLARINING O‘RNI	314
Xayitaliyev Nazirjon Yunusaliyevich	
CHAKANA SAVDO KORXONALARI TA’MINOT TIZIMIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH	323
Abduxalilova Laylo To‘xtasinovna	
O‘ZBEKISTONDA UY-JOY FONDINI BOSHQARISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASHNING ILG‘OR XORIJIY TAJRIBALARIDAN FOYDALANISH	333
Raimov Otamurod Xolmurotovich	

O‘ZBEKISTONDA DAVLAT DASTURLARINING MOLİYAVIY IJROSINI TA’MINLASHDA MARKETINGDAN FOYDALANISH: EMPIRIK TAHLIL VA KONSEPTUAL MODEL.....	340
Primova Nigora Ikrom qizi	
HUDUDIY KICHIK SANOAT ZONALARINING SAMARADORLIGINI INTEGRALLASHGAN INDIKATORLAR TIZIMI ASOSIDA BAHOLASH	346
Jalolova Sarvinoz Ulug‘bek qizi	
KIMYO SANOATI KORXONALARINING ISHLAB CHIQARISH SAMARADORLIGIGA EKOLOGIK VA INNOVATSION OMILLAR TA’SIRI	356
Akramov Bo‘ribek Faxriddin o‘g‘li	
MINTAQADA SOG‘LIQNI SAQLASH SOHASINING TUTGAN O‘RNI VA UNI RIVOJLANTIRISHNING OBYEKTIV ZARURIYATI.....	367
Boltayev Mag‘rurbek Allayarovich	
OLIY TA’LIM MUASSASASIDA ZAMONAVIY MARKETING VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING O‘ZIGA XOS JIXATLARI.....	374
Maxmudov Faxriddin Umarovich	
QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA ISHLAB CHIQARISHNI SIFAT MENEJMENTI TAMOYILLARI ASOSIDA TASHKIL ETISHNI BAHOLASH.....	381
Achilov Ilmurad Nematovich	
O‘ZBEKISTON OZIYQ-OVQAT MAHSULOTLARI BOZORINI BARQAROR RIVOJLANISHINI TA’MINLASHDA STRATEGIK BOSHQARUV VA INSTITUTSIONAL YONDASHUVLAR	391
Tuychieva Begoyim Voxidjon qizi	
TIKUV-TRIKOTAJ KORXONALARI MARKETING FAOLIYATIDA MOTIVATSIYA YONDASHUVLARIDAN FOYDALANISH	400
Jalilov Jamshid G‘anijonovich	
INTEGRATION OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN TOURISM AND HOSPITALITY: A COMPARATIVE ANALYSIS AND ROADMAP FOR UZBEKISTAN.....	407
Safaeva Sayyora Rixsibayevna	
THE EVOLUTION AND METHODOLOGICAL INTEGRATION OF THE CONCEPT OF SUSTAINABLE USE	417
Kilichov Mukhriddin	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI STRATEGIK BOSHQARISHNING MAZMUNI, ASOSIY PRINSIPLARI VA FUNKSIONAL VAZIFALARI.....	433
Shakirova Madinaxon Gafurdjanovna	
BUXORO VILOYATI TURIZM XIZMATLARI JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI MARKETING TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	442
Jalolov Otabek Oybek o‘g‘li	
OLIY TA’LIMDAGI BAHOLASH TIZIMI BO‘YICHA ISHONCH DARAJASINI ANIQLASH VA ISHONCH INDIKATORLARINI HISOBLASH METODLARI	451
Hakimov Hakimjon Abdullo o‘g‘li, Hakimova Gulnora Abdullo qizi	
TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHDA VIRTUAL TA’LIM PLATFORMALARINING ROLI	459
Hakimova Mushtariybonu Hamid qizi, Hakimova Gulnora Abdullo qizi, Bozorova Muazzam Hamid qizi	
RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANISHIDA ZAMONAVIY AXBOROTLARNI O‘RNI.....	467
Samatov Azizbek Abdulaxatovich	
MOYLI EGINLAR YETISHTIRISHDA MARKETING STRATEGIYALARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI.....	473
Valiyeva Aziza Anvar qizi	
THE ECONOMIC AND ENVIRONMENTAL EFFICIENCY OF AGRIVOLTAIC SYSTEMS IN UZBEKISTAN’S AGRICULTURAL SECTOR	481
Amonov Sardor Zamon ugli	
AMORTIZATSIYA QILINADIGAN AKTIVLAR VA ULARNI HISOBGA OLIHNING OBYEKTIV ZARURATI.....	490
Aminboyev Jaloliddin Otabek o‘g‘li	

DON MAHSULOTLARI KORXONALARIDA MARKETING JARAYONLARINI YO'LGA QO'YILGANLIK HOLATI VA RIVOJLANISH VEKTORLARI.....	500
Kurbanova Dildora Abduraxmanovna	
SANOAT KORXONALARIDA MOLIVAVIY BARQARORLIKNI SHAKLLANTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR.....	508
Salomova Sarvinoz Salimovna	
IJTIMOIIY-IQTISODIIY O'ZGARISHLAR SHAROITIDA CHAKANA SAVDO XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING XUSUSIYATLARI.....	515
Muxamedova Aziza Ravshanovna	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQRISHNING IQTISODIIY-STATISTIK TAHLILIGA DOIR.....	523
Saburov Jumanazar Saliyevich	
СОВРЕМЕННАЯ МОДЕЛЬ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО РЕСУРСА (HR) В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ	531
Амирджанова Ситора Суннат кизи, Шаюсупова Наргиза Тургуновна, Урозбоев Хайрулла Муродбой угли, Умаров Фаёзбек Суннатилла угли	
MAHSULOT TANNARXINI HISOBLASH USULLARNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI..	542
Djumanov Saitmurod Alibekovich	
TADBIRKORLIKDA RAQOBATBARDOSHLIKNI TA'MINLASHDA INSON RESURSLARINI BOSHQARISH VA MENEJMENTNING O'ZARO TA'SIRI	549
Sultonboyeva Munira Baxodirovna	
CHAKANA SAVDO KORXONALARIDA TOVAR ZAXIRALARINI BOSHQARISH MASALALARI	558
Safarov Baxtiyor Djurakulovich	
IQTISODIIYOTDA TARKIBIIY O'ZGARISHLARNING O'RNI VA AHAMIYATI	566
Ochilov Akram Odilovich, Qo'ziboyeva Nargiza Hamro qizi	
JOZIBADOR TURISTIK MAHSULOTLARNI SHAKLLANTIRISH VA SIFATINI OSHIRISH YO'NALISHLARI.....	574
Mirzabayev Jamshid Irkinovich	
OLIIY TA'LIM MUASSASALARI BOSHQARUVIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING AHAMIYATI.....	581
Gafurov Anvar Bazarbayevich	
ЗНАЧЕНИЕ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ В УПРАВЛЕНИИ СТРАТЕГИЕЙ ПРЕДПРИЯТИЯ	591
Тарават Абдул Салам	
INNOVATSION IQTISODIIYOT SHAROITIDA QAYTA SUG'URTALASH INSTITUTLARI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI VA YO'NALISHLARI	603
Sherov Sanjar Radjabovich	
BANKLAR VA MARKETING SIYOSATI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK	613
Boboxo'jayeva Fotima Kaxramonovna	
ВЛИЯНИЕ АВТОМОБИЛЬНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ УЗБЕКИСТАНА НА ЭКОНОМИКУ СТРАНЫ	619
Абдухамидова Мафтуна Турсунали кизи	
O'ZBEKISTONDA BIZNES VA TADBIRKORLIK: HOZIRGI HOLAT VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	626
Ravshanov Azizbek Ravshanovich	
OILAVIY TADBIRKORLIKNING KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHGA TA'SIRI: NAMANGAN VILOYATI BO'YICHA KO'P OMILLI EKONOMETRIK BAHOLASH	634
Ernazarova Nilufar Nozimjonovna	
MINTAQA SANOAT TUZILMASINING STRUKTURAVIY O'ZGARISHLARI VA IQTISODIIY O'SISH DINAMIKASI TAHLILI.....	644
G'aymatova Dilafro'z G'ofurjonovna	

O‘ZBEKISTONDA LIZING XIZMATLARI KO‘RSATISH JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Xolov Bahodir O‘ktamovich

MOGO LEND xorijiy lizing korxonasi
hududiy filiallar departamenti direktori,
TDIU, mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada O‘zbekistonda lizing xizmatlari ko‘rsatishning o‘ziga xos xususiyatlari yoritilib, unga doir nazariy qarashlar keltirilgan, lizing xizmatlarini hisoblash usullari bayon etilgan hamda takomillashtirish bo‘yicha takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: lizing, ijara, kredit, lizing to‘lovlari, foiz stavkasi, lizing stavkasi, lizing tadbirkorligi, sug‘urta to‘lovlari, kredit uchun foiz, kredit hajmi, vositachilik xarajatlari, boshqa qo‘shimcha xarajatlar, lizing xizmatlarini takomillashtirish.

Аннотация

В данной статье рассматриваются особенности предоставления лизинговых услуг в Республике Узбекистан, приведены теоретические подходы к лизингу, изложены методы расчёта лизинговых платежей, а также даны предложения по совершенствованию процессов предоставления лизинговых услуг.

Ключевые слова: лизинг, аренда, кредит, лизинговые платежи, процентная ставка, лизинговая ставка, лизинговое предпринимательство, страховые взносы, процент по кредиту, объём кредита, посреднические расходы, прочие дополнительные расходы, совершенствование лизинговых услуг.

Abstract

This article explores the specific characteristics of leasing services in the Republic of Uzbekistan. It presents theoretical perspectives on leasing, outlines methods for calculating lease payments, and offers recommendations for improving the process of providing leasing services.

Keywords: leasing, rental, credit, lease payments, interest rate, leasing rate, leasing entrepreneurship, insurance payments, loan interest, loan amount, intermediary costs, other additional expenses, improvement of leasing services.

KIRISH

O‘zbekistonda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish jarayonida turli xil moliyaviy xizmatlarni rivojlantirishga keng e‘tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida[1] “Hududlarda xizmat ko‘rsatish va servis sohalarini rivojlantirish orqali xizmat ko‘rsatish hajmini 3 baravarga oshirish” vazifasi qo‘yildi. Mamlakatda keyingi yillarda jadallik bilan rivojlanib borayotgan ana shunday moliyaviy xizmat turlaridan biri lizing xizmatlari hisoblanadi.

Mamlakat amalga oshirilgan islohotlarga qaramay, lizing rivojlanishining shakli va yoʻllari asta sekin shakllanmoqda. Biroq iqtisodiyot inqirozga uchragan, koʻplab korxonalar yirik moliyaviy vositalarni ishlab chiqarish jarayoniga, texnikalarni yangilashga kirita olmayotgan bir holat ishlab chiqarish sohasini rivojlantirish va mamlakatdagi barcha mulkchilik shaklidagi, birinchi navbatda, innovatsion tadbirkorlik bilan band boʻlgan ishlab chiqaruvchilarni qoʻllab-quvvatlash uchun katta miqdordagi mablagʻlarni, jumladan, xususiy investitsiyalarni jalb qilishga imkon beruvchi lizingning rolini oshirish zaruratini talab qiladi.

Istalgan tarmoqda lizing tadbirkorligining muvaffaqiyatga erishishi koʻp jihatdan uning mazmuni va oʻziga xos xususiyatlarini yaxshi bilish hamda ushbu mexanizmdan unumli foydalanishga bogʻliq boʻladi. Shu munosabat bilan lizingning mohiyati, uning tabiati va salohiyati, vazifalari va tashkiliy shakllari nimadan iborat ekanligini aniqlash dolzarb ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Lizingning mohiyatini toʻgʻri tushunish, uning tabiatini, mazmunini va zamonaviy bozor munosabatlarida bajaradigan vazifalarini har tomonlama oʻrganish milliy iqtisodiyotda uni keng ommalashtirish va rivojlantirish uchun huquqiy, iqtisodiy va boshqa shart-sharoitlarni yaratish imkonini beradi.

Bizga maʼlumki, “lizing” iborasi inglizcha “lease” feʼlidan kelib chiqqan boʻlib, mulkni ijaraga berish yoki ijaraga olishni bildiradi. Baʼzi manbalarda lizing deyilganda mashina, uskuna, transport vositalari va ishlab chiqarish ahamiyatiga ega boʻlgan boshqa koʻchar mulkni uzoq muddatli ijaraga olishni tushunish kerak, deb taʼkidlanadi[2].

Taʼkidlash joizki, oxirgi 10 yil davomida chop etilgan iqtisodiy adabiyotlarda “lizing – shunchaki ijara toʻgʻrisidagi kengaytirilgan shartnoma” yoki “lizing – ijaraning kreditga yaqinlashgan oʻziga xos koʻrinishi”, yoxud “butun ijara muddati davomida ijarachining mulkchilik huquqi saqlanib qoladigan ijara shartnomasi” degan fikrlar uchraydi.

Bunday fikrlarda eng avvalo lizingning maqsadi, birinchidan, ijaraga beruvchining mulkchilik huquqi saqlanib qolishi, ikkinchidan, lizing mol-mulkini qoʻlga kirituvchi tomon, uchinchidan, ijara va kreditning oʻzaro uygʻunlashgan munosabatlari qayd etilgan. Shu bilan birga, bu taʼriflarda tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirishning alohida usuli boʻlgan lizingning iqtisodiy tabiati va mazmuni aks etmaydi.

Xorijiy adabiyotlarda lizingning boshqa taʼriflari ham uchraydi. Jumladan, ayrim iqtisodchilar “lizing koʻchar va koʻchmas texnikalarni ijarachiga sotib olish imkoniyatini beradigan hamda uni ijaraga olish shartnomasini koʻzda tutadigan professional kreditlashning bir turidir”, deb talqin etishadi [3].

Ilmiy adabiyotlarda ayrim mualliflar lizingni uzoq muddatli ijara deb bilib, ijarachining ijaraga olingan mol-mulkini opsiya boʻyicha sotib olish mumkinligi kabi huquqiy munosabatlar mavjudligini taʼkidlaydilar [4].

Uygʻonish davri Oʻrta Osiyo allomalaridan Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Yusuf Xos Hojib, Amir Temur, Ulugʻbek va Navoiylarning koʻpgina asarlarida ham islom

iqtisodiy g'oyalari, bevosita mulk va mulkiy munosabatlar, ijara va sodda bo'lsa-da, o'sha zamonga xos bo'lgan lizing munosabatlari yoritib o'tilgan.

Ba'zi nashrlarda lizing va ijara tushunchalari o'rtasiga tenglik belgisi qo'yiladi va lizing yer uchastkasi, bino, inshoot, asbob-uskunalar, odatda, renta shaklidagi to'lov evaziga foydalanish yoki ularni qarzga olish huquqini berish tarzidagi "shakl" deb ta'riflanadi. Fikrimizcha, ushbu tarzidagi ta'rif lizingning iqtisodiy tabiatini ochib bermaydi, unda faqat foydalanish huquqi va haq to'lash majburiyati aks etadi va iqtisodiy munosabatlar nuqtai nazaridan lizingning mohiyati hamda uning negizida yotuvchi lizing munosabatlari to'liq yoritilmaydi.

Lizingning mohiyatini yoritish uchun chet el amaliyotida lizing munosabatlarining shakllanish asoslariga, unga ta'sir etib kelgan asosiy omillarga e'tibor qaratish lozim. Rivojlangan mamlakatlarda lizing munosabatlarining namoyon bo'lishini asoslash va uni iqtisodiyotga joriy etilishining noan'anaviy usullari bilan moliyaviy manbalarni izlash alohida ahamiyat kasb etib kelmoqda.

Ayrim manbalarda "lizing – muayyan tovarga bo'lgan mulkchilik huquqini uchinchi shaxs uchun sotib olib, uni qisqa, o'rta yoki uzoq muddatli davrga ijaraga beradigan ixtisoslashgan lizing kompaniyasi vositachiligida asosiy fondlarga kapital qo'yilishini moliyalashtirishning o'ziga xos shaklidir" [5], deb ta'rif berilgan. Ammo lizingning ushbu ta'rifida, birinchidan, lizing moliyalashtirishning o'ziga xos shakli deb ta'kidlangan bo'lsa, ikkinchidan, vositachi uchinchi shaxs uchun mulkchilik huquqini qo'lga kiritadi, deb, uchinchidan esa ijara munosabatlari mavjudligi e'tirof etilgan.

Lizing tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi va raqobatning kuchayishi natijasida paydo bo'lgan. Tadbirkorlik faoliyati uchun investitsiya resurslarini qidirib topish yoki mulkni qo'lga kiritish, unga egalik qilish hamda undan foydalanish huquqini olishning boshqa usullariga nisbatan lizingning u yoki bu afzalliklari turli huquqiy va iqtisodiy makonlarda turlicha namoyon bo'ladi. Ya'ni, lizing mol-mulkidan tadbirkorlik maqsadlarida foydalanish imkoniyatini olish vositasi sifatida lizingdan ko'riladigan manfaatlar yoki zararlar, uning afzalliklari yoki kamchiliklari iqtisodiy, shu jumladan, huquqiy va moliyaviy munosabatlarning darajasi bilan belgilanadi [6].

Ba'zi tarjima nashrlarida lizing ijarani moliyalashtirish deb hisoblanadi va lizing usulida moliyalashtirish bankning texnika yoki mashinalarni sotib olib, ularni o'z mijozlariga ijaraga berishini nazarda tutadi, deb ta'kidlanadi [7].

Aslida bank mulkchilik huquqini sotib olmaydi, balki kredit beradi, to'g'rirog'i, ijarachining ijara munosabatlari vositasida va lizing shartnomalarida ko'rsatilgan muddatlarda mol-mulkni qo'lga kiritish niyatidagi bo'lg'usi huquqini kreditlaydi. Shuni ham ta'kidlash kerakki, lizing texnologiyalar va texnikalarni sotib olish hamda samarali qo'llash uchun lizing beruvchi va lizing oluvchilarning o'zaro maqbul kredit munosabatlariga kirishish shaklidir.

O'zbekiston Respublikasining "Lizing to'g'risida"gi qonunida lizing ijara munosabatlarining alohida turi bo'lib, unda bir taraf (lizing beruvchi) ikkinchi tarafning (lizing oluvchining) topshirig'iga binoan uchinchi tarafdan (sotuvchidan)

haq evaziga egalik qilish va foydalanish uchun lizing shartnomasida belgilangan shartlarda unga berib qo'yish maqsadida mol-mulkni (lizing obyektini) oladi, deb belgilangan [8].

Iqtisodiy adabiyotlarda e'tirof etilishicha, rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, uni inqiroz sharoitidan chiqarish va barqaror rivojlanishini ta'minlashda lizing muhim o'rin egallagan [9].

METODOLOGIYA

Lizing to'lovlari tarkibiga lizing beruvchi tomonidan lizing shartnomasi shartlariga muvofiq lizing obyektini sug'urtalashga to'langan sug'urta to'lovlari ham kiritiladi va uni quyidagi formula bilan izohlash mumkin:

$$LT = AA + KF + VX - QX + ST \quad (1)$$

bu yerda:

- LT - jami lizing to'lovlari;
- AA - lizing beruvchiga to'lash uchun hisoblanadigan amortizatsiya ajratmalari;
- KF - kredit mablag'lari uchun to'lanadigan foizlar yoki lizing stavkasi;
- VX - lizing beruvchiga lizing obyektini sotish bilan bog'liq vositachilik xarajatlari;
- QX - lizing beruvchiga lizing obyektini yetkazib berish bo'yicha qilingan, qo'shimcha xarajatlar;
- ST - sug'urta to'lovlari.

Lizing to'lovining asosiy qismini amortizatsiya ajratmalari tashkil etadi. Amortizatsiya ajratmalari foydalanilayotgan lizing obyektining jismonan va ma'naviy eskirishi natijasida yo'qotilgan qiymatni qoplovchi asosiy manba hisoblanadi.

Amaliyotda amortizatsiya ajratmasi summasi quyidagicha hisoblanadi:

$$AA = \frac{BQ \cdot N}{100\%} \quad (2)$$

bu yerda:

- BQ - lizing obyektining balans qiymati;
- N - amortizatsiya ajratmalari normasi (eskirish koeffitsiyenti);

Lizing stavkasi lizing beruvchi tomonidan ijaraga olingan mulkdan foydalanilganligi uchun to'lanadigan haq bo'lib, u lizing beruvchining daromadi hisoblanadi. Lizing stavkasining mazmuni qarzga olingan mablag'lar (ssudalar) uchun to'lanadigan foizlar bilan bir xildir. Shu sababli uning summasi foydalanilgan kredit uchun foiz (KF) hisoblash tartibiga monand ravishda aniqlanadi:

$$KF = \frac{KH \cdot FS}{100\%} \quad (3)$$

bu yerda:

- KH - kredit hajmi;
- FS - foiz stavkasi darajasi.

Ma'lumki, lizing beruvchi – lizing kompaniyalari yoki banklar lizing obyektini sotib olish bilan bog'liq marketing, transport va xodimlarga ish haqi to'lash kabi xarajatlarni amalga oshiradi. Ushbu xarajatlar vositachilik xarajatlari bo'lib, u lizing to'lovlarining tarkibiy qismi hisoblanadi. Ushbu xarajatlar lizing beruvchiga lizing

oluvchi tomonidan to'lanadigan xizmat ko'rsatish mukofoti ham deyiladi. Vositachilik xarajatlarining miqdori quyidagicha aniqlanadi:

$$VX = \frac{KH \cdot VS}{100\%} \quad (4)$$

bu yerda:

- KH - kredit hajmi;
- VS - vositachilik xarajatlari yillik stavkasi.

Bundan tashqari, lizing beruvchi lizing obyektni saqlash, uni lizing oluvchiga yetkazib berish, o'rnatish va ishlab chiqarishga joriy etish bo'yicha xodimlarni o'rgatish va turli maslahatlar berish kabi qo'shimcha xarajatlar qiladi. Qo'shimcha xarajatlar o'z ichiga quyidagilarni oladi:

$$QX = SX + KX + RX + BX \quad (5)$$

bu yerda:

- SX - xizmat safari xarajatlari;
- KX - ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha xarajatlar;
- RX - reklama xarajatlari;
- BX - boshqa xarajatlar.

TAHLIL VA NATIJALAR

Masalan, 2024-yilda MOGO LEND xorijiy lizing korxonasi tomonidan biror shaxsga balans qiymati 10000 ming so'mlik avtomashina 5 yil muddatga lizingga berilgan bo'lsin. Agar avtomashinaning yillik eskirish koeffitsiyenti 20% ekanligi inobatga olinsa, amortizatsiya summasi yiliga 2000 ming so'mga teng bo'ladi ($10000 \times 0,20 = 2000$).

KH – kredit hajmi lizingga berilgan avtomashinaning balans qiymatiga, ya'ni 10000 ming so'mga teng bo'ladi. Agar bank kreditlari bo'yicha qaror topgan o'rtacha foiz stavkasi darajasi (FS) 10% ga teng bo'lsa, lizing stavkasi summasi besh yilga 5000 ming so'mga teng bo'ladi ($10000 \times 0,1 = 1000$; $1000 \times 5 = 5000$).

Vositachilik stavkasi darajasi (VS) yillik 0,2% ga teng bo'lsa, vositachilik xarajatlarining yillik summasi 20 ming so'mga teng bo'ladi ($10000 \times 0,002 = 20$ ming so'm; 5 yil uchun $20 \times 5 = 100$ ming so'm).

Agar QX – qo'shimcha xarajatlar summasi 80 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, yuqoridagi misol bo'yicha jami lizing to'lovlari summasi 15180 ming so'mga teng bo'ladi ($10000 + 5000 + 100 + 80 = 15180$).

Lizing to'lovlarining muddati tomonlarning kelishuviga muvofiq ma'lum davrlarga bo'linishi, odatda, har oyga, har chorakka va yilga bo'lib o'rnatilishi mumkin. Lizing to'lovlari summasi shartnomada belgilangan har bir ayrim davr uchun quyidagicha topiladi:

- yillik to'lovlar uchun - $(LT \div T)$;
- choraklik to'lovlar uchun - $((LT \div T) \div 4)$;
- oylik to'lovlar uchun - $((LT \div T) \div 12)$.

Yuqoridagi misolda topilgan jami lizing to'lovi summasi davrlar bo'yicha quyidagicha topiladi:

- yillik to'lovlar uchun – $(15180 \div 5) = 3036$ ming so'm;
- choraklik to'lovlar uchun – $((15180 \div 5) \div 4) = 759$ ming so'm;
- oylik to'lovlar uchun – $((15180 \div 5) \div 12) = 253$ ming so'm.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bugungi kun amaldagi me'yoriy hujjatlarga asosan lizing oluvchi lizing to'lovlarini amalga oshirayotganida, uning amortizatsiya ajratmalariga, foizlarga, vositachilik va qo'shimcha to'lovlarga alohida ajratib ko'rsatgan holdagi yoyilmasini ilova qilishi shart.

Lizing to'lovlari kelib tushganidan keyin lizing kompaniyasi uning yoyilmasiga mos ravishda buxgalterlik o'tkazmalarini amalga oshiradi: amortizatsiya ajratmalari lizing hisobi yuritiladigan ssuda hisob varag'ining kreditiga o'tkazish orqali kreditni to'lashga yo'naltiriladi, lizing uchun foiz, vositachilik haqi va boshqa to'lovlar bank daromadiga qo'shiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda mamlakatimizda lizing xizmatlari ko'rsatish jarayonlarini takomillashtirish uchun bizning fikrimizcha quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim:

- lizing to'lovlarini tomonlar kelishuviga muvofiq tuzilgan va lizing shartnomasining ajralmas qismi hisoblanadigan maxsus jadvalga muvofiq amalga oshirilishini yo'lga qo'yish kerak;
- mamlakatimizda lizing to'lovlarining xalqaro andozalar bo'yicha buxgalteriya hisobini yuritish qoidalariga to'liq amal qilish kerak;
- bugungi kunda xalqaro lizing amaliyotida lizing to'lovlarini hisoblash usullarini buxgalteriya hisobida aks ettirish lozim;
- lizing xizmatlari ko'rsatish jarayoniga lizingga oluvchilarning manfaatlarini birinchi o'ringa qo'yadigan tizimga o'tishimiz lozim;
- lizing tashkilotlari ishlab chiqarilgan mahsulotlarni lizing orqali sotishda "savdoga ko'mak" (sales-aid) lizing xizmatlari tizimiga o'tishi zarur va boshqalar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son "“O'zbekiston – 2030” strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/6600413>.
2. Бланк И.А. Инвестиционный менеджмент. – Киев: МП "ИТЕМ" ЛТД, "Юнайтед Лондон Трейд Лимитед", 1995.- 408 с.
3. Бернар И., Колли Ж.К. Толковый экономический и финансовый словарь. Французская, русская, английская, немецкая, испанская терминология: в 2-х тт. – Т.1: Пер. с фр. – М.: Международные отношения, 1994. – 784 с.
4. Прилуцкий Л.Н. Лизинг. Правовые основы лизинговой деятельности в Российской Федерации. –М.: Изд-во «Ось», 1996. – 128 с.
5. Чжен В.А. Язык бизнеса: термины. – Т: ИПК «Шарк», 1995. – 241 с.
6. Газибеков Д.Г., Собиров О.Ш. Лизинг и его развитие в Узбекистане, – Т.: Молия, 2001. – 132 с.

7. Роуз Питер С. Банковский менеджмент. – Пер. с англ., 2-го изд.- М.: Дело Лтд., 1995. – 173 с.
8. Haydarov Sh.U., Ortiqov X.A., Tuxsanov X.A. Lizing: tan olish, baholash va uning hisobi. – T.: Norma, 2006. – 152 b.
9. G‘ozibekov D.G‘., Sabirov O.Sh., Mo‘minov A.G., Quljonov O.M. Lizing munosabatlari nazariyasi va amaliyoti. – T: Fan va texnologiya, 2004. – 6-30 b.
10. MOGO LEND xorijiy lizing korxonasining hisobot ma’lumotlari.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhih:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, dekabr, 12-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz

Bot: [@marketingjournalbot](https://t.me/@marketingjournalbot)

Tel.: +998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. ГОСТ 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlaro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**